

O'ZGACHA FIKRLASH AYB EMAS, BU – JINOYAT

Ravshanov Jasur Ortiqjon o'g'li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Xalqaro munosabatlar fakultetining

1-bosqich talabasi

Jasurravshanovfounder@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7431084>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jorj Oruel tomonidan yozilgan “1984” romanidagi utopik jamiyat va uning bugungi kunda biz yashayotgan dunyoga qanchalik o'xshashligi, dunyoda sodir bo'lyotgan urushlarning asl sababi va aholini qanday qilib qullik holatida jaholat botqog'ida saqlash mumkinligi muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Sotsializm, qo'shfikrlik, fikriy jinoyat, Okeaniya, partiya, siyosiy elita, Yangitil.

Insoniyat paydo bo'lgandan buyon rivojlanishning uzoq yo'llarini bosib o'tdi. Ushbu mashaqqatli yo'lda bizning ham iqtisodiy, ham siyosiy, ham ma'naviy rivojlanishimiz yoki inqirozga uchrashimizda asosiy ahamiyat kasb etuvchi omil bu –siyosiy elita va u tomonidan ishlab chiqilgan mafkuradir. Mashhur ingliz yozuvchisi Jorj Ouell tomonidan yozilgan “1984” romanida tasvirlangan utopik jamiyat va uning sotsialistik mafkurasini hech ikkilanishsiz eng achinarli, jaholat botqog'iga botgan desak, mubolog'a bo'lmaydi. Ayniqsa undagi bosh qahramonning bu jirkanch jamiyatda ruhan va jismonan azoblanishi, siyosiy elitaing o'taketgan qabihliklari, aholini doimiy qullik holatida saqlab turish uchun ishlatadigan usullari va shiorlari chidab bo'lmas darajada dahshatlidir.

Uinston Smit – o'z jamiyatidagi so'ngi inson. Romandagi bosh qahramon bo'lmish janob Uinston atofidagi barcha odamlar singari o'z o'tmishini unutganiga qaramsdan partiyaga huddi qullardek xizmat qiluvchi odamlar orasidagi yagona irodasi sinmagan insondir. U qalban partiya ishlab chiqqan “ingsot”, ya'ni ingliz sotsializmining go'yalariga qarshi chiqqan holda yuragining tub-tubida bu jamiyatni nur sari boshlovchi kunlar kelishiga ishonuvchi inson sifatida tasvirlangan.

Sotsializm haqida so'z borar ekan barcha siyosatshunoslarning hayoliga “Katta Og'a seni kuzatmoqda” jumlasini keladi. Bu jumla ilk marotaba “1894” romanda ishlatilganiga yetmish yildan oshibdiki, hali ham zamonaviy siyosiy maydonda faol qo'llaniladi. Aslida Katta Og'a kim? U qachon yashab o'tgan? Janob Uinstonning dunyosida oddiy odamlar uchun Katta Og'a barchasini bilib turadi, barcha narsa u xohlagandek bo'adi, u hech qachon xato qilmaydi, hech kim u qachon tug'ilganini bilmaydi va u hech qachon o'lmaydi. Bu aqidaning o'ziga xos tomoni shundaki, unda xudosizlik targ'ib qilinib, Katta Og'aning o'zini

xudo darajasiga ko'tarilganidir. Ammo uni hamma joyda osib qo'yilgan rasmalaridan boshqa hech kim ko'rmas edi, uni aslida hech kim ko'rmagan. Chunki Katta Og'aning o'zi mavjud emasdi va buni faqatgina eng yuqori lavozimdagi partiya a'zolari bilar edilar

“Urush bu-tinchlik”; “Ozodlik bu-qullik”; “Jaholat bu-kuch”¹ – Okeaniya davlatining bosh shiorlari . Kitobni o'qir ekanmiz, ko'pchilikni nega partiya bu so'zlarni o'ziga shior qilib olgani o'ylantirib qo'yishi turgan gap. Romanda yaratilgan utopik dunyoda faqatgina uchta davlat bor: Okeaniya, Yevrosiyo va Ostosiyo. Bu davlatlar manfaatlari doimiy to'qnashadi, ular o'rtasida doimiy urush bo'ladi. Urush bu - hayot tarzining ajralmas qismigina bo'lmay, shu hayot tarzining o'zidir. Eng ajablanarlisi shuki, bugungi kunda ham bizlar yashayotgan dunyoimiz uchun urush allaqachon hayot tarziga aylanib qoldi. Urushning asl maqsadi nimaki, biz unga ko'nikib qolib, usiz yashay olmaydigan bo'lib qoldik?

Urushning asl maqsadini bilish uchun biz biroz o'tmishga bir nazar tashlamog'imiz darkor. Bundan sakkiz ming yil muqaddam bizni hayotimizni jannatga aylantirishi mumkin bo'lgan faoliyat, ya'ni dehqonchilik hamda hunarmandchilik bilan shug'illana boshladik. Bu sohalar rivojlanishi natijasida odamlar o'zlarini kundalik iste'mol mahsulotlari bilan ta'minlashga erishdilar. Aynan shu narsalar urush tomon qo'yilgan birinchi qadam edi. Chunki insonlar endi shu va shunga o'xshash sohlarni rivojlantirish yo'llarini o'ylay boshladilar. Natijada ko'plab kashfiyotlar-u ixtirolar qilindi. Ayniqsa so'ngi ikki yuz yil ichida insoniyat texnika sohasida shu qadar katta yutuqqa erishdiki, natijada bu texnologiyalar barcha odamlarni kundalik turmush uchun zarur narsalar, jumladan oziq-ovqat, suv, mashina va boshqa texnikalar bilan ta'minlashi mumkin edi. Ammo insoniyating moddiy jihatidan taraqqiyoti aholi orasida mulkiy tengsizlikni kuchaytirib yuboradi. Bu esa tabaqalanishiga olib keldi, ya'ni ko'proq foydaga erishgan odamlar o'z mol mulklarini ko'paytirib, o'z yerlarini boshqalarga ijaraga bera boshlaydi. Turli tabiat hodisalari tufayli hosil ololmay, ijara haqqini to'lay olmagan toifa to'laligicha mol-mulk egasiga qaram bolib qoldi. Endi ko'plab aholini qaram qilgan toifa qo'shin to'pladi va o'z davriga xos hukumat tuzib, muayyam bir hududni nazorat qila boshladi. Hokimiyatni boshqarayotgan bu toifa tushinib yetdiki, odamlarni o'zlariga qaram va muhtoj qilib qo'yish, ularni nazoratda tutib turishning eng oson yo'lidir. To'g'ri, ma'lum vaqt o'tishi bilan insonlarga in'om etilgan eng oliy his, ya'ni ozodlik hissi ularni yuragida jo'sh urib, o'z haq-huquqlarini talab qilishga va qo'zg'alonlar ko'tarishga olib keldi va hokimiyat tepasida turgan toifaning ularga qisman yoki to'liq erkinlik bermasdan boshqa iloji qolmadi. Endi ular o'z hokimiyatini ko'proq saqlab qolish uchun ozod bo'lgan odamlarni o'zlariga muhtoj qilib

qo'yishlari kerak edi. Buning uchun aholini moddiy va ma'naviy jihatdan rivojlanishga yo'l qo'ymaslik kerak edi. Hukumatdagilar ko'plab yo'llarni o'ylab topishdi, misol uchun ular kimki biror sohada nimadir ixtiro qilsalar, uning uchun maxsus ruxsatnoma (patent) sotib olishlari kerak edi. Chunki ixtiro qilingan ko'plab texnika-texnologiyalar oddiy aholiga yengillikni oshirib, muhtojlikni kamaytirar edi. Shu sababli minglab inqilobga teng ixtirolar shunchaki qog'ozlarda nazariyaligicha qolib ketdi. Ammo jamiyatni bir parcha patent qog'ozi bilan zanjirband qilib bo'lmas edi, chunki ko'pchilik yashirincha holatda ixtirolar qilib, ulardan foydalana boshladi, boshqa o'ylab topilgan tarqqiyotga qarshi to'siqlar ham yemirila boshlandi. Bu ixtirolar jamiyatga yengilliklar bera boshladi. Endi hukumatlar oldida bir vaqtning o'zida ham ishlab chiqarishni bor quvvati bilan yurgizish, ham past darajali yashash sharoitini saqlab qolish kerak edi. Boshqacharoq qilib aytganda hokimiyatni boshqaryotgan siyosiy elita taraqqiyotni to'xtatmagan holda, aholini taraqqiyot beradigan mavasi lazzatidan mahrum etish kerak edi. Buning uchun eng yaxshi chora – urush. Davlatlar urush harajatlari uchun juda katta kuch va pul sarflaydi va bir birlarining hududlarini vayron qiladilar, vayronalarni tiklash uchun ham katta kuch sarflanadi. Natijada odamlar o'z ehtiyojlari uchun mehnat qilish o'rniga o'zlari yaratgan qurollar sabab bo'lgan vayronalarni qayta tiklaydilar. Misol uchun Jahon urushlariga nazar solaylik, barcha davlatlar dahshatli harbiy qurollar yaratdi, bir birlarining hududlarini vayron qildilar. Urush tugaganidan so'ng esa shu vayronalarni tiklashga butun aholi jalb etildi.

Yana bir dahshatli oqibati shuki, urushni to'xtatish uchun yaratilgan qurollar, keying urushning boshlanishi uchun asos bo'ladi. Misol uchun Ikkinchi Jahon Urushini yakunlab bergan atom bombasi, biroz vaqt o'tiboq, dunyoni yadroviy halokat yoqasiga olib keldi va butun insoniyat sivilizatsiyasiga tahdid soldi. Mashhur o'zbek yozuvchisi O'tkir Hoshimovning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" kitobidan iqtibosga nazar tashlaylik: "Urushda g'olib va baxtli podshoh, g'olib va baxtli qo'shin, g'olib va baxtli davlat, g'olib va baxtli tuzum bo'lishi mumkin, ammo g'olib va baxtli odam bo'lmaydi. Chunki urush odamni odam o'ldirishga majbur qiladi, odam o'ldirgan odam hech qachon baxtli bo'lolmaydi²". Darhaqiqat, barcha urushlar, vayronagarchilik, qon to'kilishlar faqatgina hukumatga obro' shon-sharaf olib keladi va taraqqiyotga jiddiy to'siqlar qo'yadi.

"Ozodlik bu- qullik. Partiya shunday bir holni yarata olgan ediki, u hech qanday harkatni qonunan ta'qiqlamas edi. Bir qarashda bu ozodlikning eng yuqori cho'qqisidek ko'rinadi. Ammo ingliz sotsializmida eng o'g'r jinoyat bu – fikriy jinoyat hisoblanar edi. Bugungi kunda demokratik davlatlarda yashovchi insonlarga yot bo'lgan tashkilot, fikrlar poltsiyasi asardagi asosiy davlat

tashkilotidan biri hisoblanib, uning asosiy vazifasi o'zgacha fikrlovchi, ya'ni fikriy jinoyat sodir etib, Katta Og'a xohishlariga qarshi chiqqanlarni doimiy kuzatuv ostida saqlab, vaqti kelganda hibisga olishdan iborat. Ammo Tangri bizga fikrlash, erkinlik, hayotga muhabbat, insonlarni sevish va baxtga intilish kabi noyob xislatlarni bergan. Har bitta inson ota-onasidan tug'ilganda shu kabi na'matlarga yetishish imkoni mavjud bo'ladi. Aynan shu narsalarga yetishishimizga yordam beradigan, uni qonuniy jihatidan mustahkamlab qo'yadigan hukumatni esa bugungi kunda bizning o'zimiz saylaymiz. Ammo, janob Uiltston yashayotgan jamiyatda Tangri tushunchasi yo'q qilingan, uning o'rniga Katta Aka hammani har doim kuztib turadi. "Fikirlash" xislatini esa faqatgina dahshati oqibatlarini tasavvur qilgan holda zikr qilishimiz mumkin. Chunki barcha qilinishi mumkin bo'lgan jinoyatlar eng avvalo fikrlashdan boshlanadi. Fikrlar politsiyasi shu sababli fikriy jinoyatchilarga qarshi kurshni o'zing oliy maqsadiga aylantirgan. Asarda ko'rishimiz mumkinki, jamiyat ikkiga bo'lingan: prollar, ya'ni oddiy odamlar va partiya a'zolari. Partiya a'zolari ham ichki va tashqi partiyaga bo'linadi. Ichki partiya a'zolari prollardan ko'p ham farq qilmaydi, yagona katta farq- partiya a'zolarining har nafaslarini, har qadami Oruel televizor deb ataluvchi qurilma orqali kuzatiladi. Oddiy xalq kuzatilmaydi, chunki ular hokimiyatga ta'sir eta olmaydilar, ular birlasha olmaydilar, ularning qornlarini to'rdirishdan boshqa mashg'uloti yo'q. Shu sababli prollarni hayvonlarga tenglashtirib, "Hayvonlar va prollar ozoddirlar" - deb aytiladi romanda. Bu ikki toifa, ya'ni tashqi partiya a'zolar va prollar hayotida umuman lazzat, quvonch, o'yin kulgi yo'q. Hattoki ularga shu hislarni beruvchi yeguliklarni yeyish yoki ko'ngilxushlik qilish ta'qlangan.

Jaholat bu – kuch. So'ngi shioriga to'xtalar ekanmiz partiya tomonidan ishlab chiqilgan Yangitil nomi lug'atga e'tibor qaratish eng to'g'ri yo'l hisoblanadi. U lug'atda odamni qo'shfikrlikka undovchi, insoniy huquqlar, erkinlik, baxt, qisqa qilib aytganda ijobiy ma'nodagi so'zlar asta-sekin olib tashlanadi. Misol uchun "hayotdan zavq olish", "quvonch", "ajoyib", "to'qlik" va shunga o'xshab so'zlar Yangitildan olib tashlangan va ishlatish ta'qiqlangan. Bundan quydagicha xulosaga kelsak bo'ladi: asosiy maqsad hozirgi avlod tildan bu so'zlarni olib tashlash. Natijada keyingi avlod umuman bu tushuncha mavjudligini bilmaydi. Uinston Smiting Yangitil ustida ishlayotgan hamkasbi Saym bilan suhabtiga e'tiboringizni qaratmoqchiman: Saym: "Agar ochlik so'zi mavjud bo'lsa, "to'qlik" degani so'zni nima keragi bor? "Ochiqmaganlik" so'zining nimasi yomon? Hatto u yaxshiroq, chunki u to'g'ridan to'g'ri qarama-qarshi ma'noni bildiradi". Bu yerda ko'rishimiz mumkinki, "ochlik" so'zi insonlarning doimiy yo'ldoshiga aylangan, ya'ni ular to'qlik degan tushunchani umuman yo'q qilib

yuborishmoqchi. Shunda insonlar to'qlik nimaligi unutishadi. Faqatgina ochlik hamda ochiqmaganlik qoladi. Boshqa tuyg'ular ham shu tarzda yo'q qilinadi va jamiyat faqatgina bir fikrli jamiyatga aylantiriladi.

“Jaholat bu – kuch. Aholini doimiy och saqlash ularni o'z huquqlari uchun kurashish o'rniga tezroq qorinlarini to'ydirish uchun quldek mehnat qilishga majbur qiladi. Natijada ular ovqat uchun hamma narsa qilishga tayyor bo'ladilar. U holda odamlarning hayvonlardan deyarli farqi qolmaydi. Agarda aholini katta qismi ziyoli bo'lsa ular o'z haq-huquqlari va majburiyatlarni yaxshi tushunib yetadilar va natijada partiyaning barcha razilliklariga qarshi chiqa boshlaydilar. Shu sababli partiya aholini jaholatda och qoldirib, ularni osongina boshqarar edi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Jorj Oruell o'zing romanida yaratgan jamiyat va uning mafkurasi shunchaki utopik ko'rinishda yozilgan bo'lsada, u davlatlar o'rtasidagi urushlarning, asosan, hokimiyatda turgan siyosiy elitaga xizmat qilishi, ochlik va ilmsizlik orqali aholni osongina boshqarish mumkinligini ko'rsatib beradi. Yozuvchi tomonidan yaratilgan xayoliy ingliz sotsializmi aqidalarning juda ko'p jihatlari shu davrgacha bo'lgan va hozirda ham hukum suriyotgan ayrim sotsialistik davlatlarning mafkuralariga o'xshashligi kitobxonni hayratga soladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Jorj Oruell . “1984”. “Asaxiy uz” nashriyoti (2021). 30-56.
- 2.O'tkir Hoshimov . “Daftar hoshiyasidagi btiklar”. ”Sharq” nashriyoti (2007). 20.